



Tadqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'R TARMOQLI ILMIY KONFERENSIYA

YANG O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCE.UZ

INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

DAVRIYLIGI: 2018-2023



SPEKTROSKOPIYA -
MATERIYANI BILISH USULI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJUY OLY TALIM MUASSASALARI PROFESSOR-OQTUVIGHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLU TALABALAR



TOSHKENT SHAHAR, AMIR
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



YANVAR
№48

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
17-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-17**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-17**

ТОШКЕНТ-2023



“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 48-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 56 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттига устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўкув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибай Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ ЮТУҚЛАРИ

1. Hamroyeva Nozigul Xayriddinovna

MATEMATIKAGA IXTISOSLASHGAN SINF O'QUVCHILARIDA IJODIY QOBILIYATNI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI SHAKLLANTIRISH 7

2. Igamberdiyeva Balnur Shirinovna

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA FIZIKA FANINI AKT DAN FOYDALANGAN HOLDA NAMOYISHLI TAJRIBALAR ASOSIDA O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 9

3. Rustamova Saodatoy Meliziyayevna

FIZIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.....10

4. Narbayeva Shodiya Allanazarovna

MAKTABLARDA O'RGATILADIGAN KASB HUNARLARNI MATEMATIKA FANI BILAN UYG'UNLASHTIRIB, DARSLARGA TADBIQ QILISHNI O'RGATISH TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI.....12

5. Rahimova Gulmira Adhamjonovna

YARIM O'TKAZGICHLAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI.....14



ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ ЮТУҚЛАРИ

МАТЕМАТИКАГА ИХТИСОСЛАШГАН СИНФ О‘QUVCHILARIDA IJODIY QOBILIYATNI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI SHAKLLANTIRISH

Hamroyeva Nozigul Xayriddinovna

O‘zbekiston Respublikasi Prezident ta’lim

muassasalari agentligi Nurota tumani

ixtisoslashgan maktabi matematika fani o‘qituvchisi

Telefon: +998999-065-80-83

Elektron pochta:nozigulhamroyeva1996@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida matematikaga ixtisoslashgan sinf o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini pedagogik texnologiyalar orqali shakllantirish qaratilgan.

Kalit so’zlar: Matematika, Boshlang‘ich ta’lim, “Bumerang”, “O’rgimchak”, “B.B.B”, “Narvoncha”, “Zinama-zina”, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Bumerang”, “Charxpalak”, “Zinama-zina”, “Labirint”, Intuitsiya,

Ta’lim tizimi butunlay yangi mazmun kasb etayotgan hozirgi davrda har bir fanning mazmuni qayta tahlildan o‘tkazish, ta’lim bosqichlari bo‘yicha uning uzviyligi va uzlusizligini ta’minlash asosida tubdan isloh qilish va hayot bilan bog‘lash nuqtaiy nazaridan yondashish zarur bo‘ladi.

Ijodiy fikrlashning ajratilgan xususiyatlar tizimidagi mustaqillik fikrlashning ijodiy, mahsulotli xususiyati deb o‘rganilmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim – ta’lim imoratining poydevori ekanligi hech kimda e’tiroz tug‘dirmaydigan haqiqat, yosh avlodni barkamollikka eltuvchi bosh bo‘g‘indir. Ta’lim imoratining pishiq – puxtaligi, ko‘rkamligi, salobati, avvalo, boshlang‘ich ta’limning saviyasiga, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tarkibiga, ularning zaruriy bilim va malakalarni, pedagogik mahoratni puxta egallaganligiga bog‘liq. O‘qituvchi qanchalik bilimdon bo‘lsa, o‘z ishini sevsqa, kasb mahoratini tinmay takomillashtirib borsa, yangi samarali usullarni, tajribalarni egallash ustida tinimsiz ishlasa, yangiliklar ijod etish uchun izlansa u bergen ta’limning samarasini yuqori bo‘lishi shak-shubhasiz.

Ta’lim samaradorligini oshiradigan omillardan biri – ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan mohirona foydalanishdir. Bu boshlang‘ich ta’lim uchun ham taalluqlidir. Innovatsion texnologiyalar, interfaol dars usullaridan foydalanish imkoniyatlari boshlang‘ich sinflarda ham juda ko‘p.

Ma’lumki, innovatsiya yangilik yaratish, kiritish degan ma’nolarni bildiradi. Ta’lim jarayonida ham innovatsiya shu yoki shunga yaqin ma’noda qo‘llaniladi, hamda o‘quvchilarni yoppasiga faollashtiradigan, dars jarayonida ularni passiv tinglovchidan mustaqil fikr yurituvchi, xulosalar chiqara oluvchi faol ishtirokchiga aylantirishda qo‘llaniladigan metodlar majmui tushuniladi.

Biroq hech bir yangilik o‘z-o‘zidan yoyilmagani singari, innovatsion dars usullari ham ta’lim jarayoniga o‘z-o‘zidan kirib bormaydi, balki ularni reja asosida o‘qituvchilarga tinimsiz singdirib borishni, shu yo‘nalishda samarali usullar qo‘llashni talab etadi.

O‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradigan pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etiladigan matematika darslarida quyidagilar muhim o‘rin tutadi:

- Har bir darsda interfaol usullarni qo‘llash.
- Har bir masala yechimini topish uchun muammoli vaziyat yarata olish.
- Zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan darslarda didaktik o‘yinlardan o‘rinli foydalanish. (“Bumerang”, “O’rgimchak”, “B.B.B”, “Narvoncha”, “Zinama-zina”, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Bumerang”, “Charxpalak”, “Zinama-zina”, “Labirint” va boshqalar)
- Matematika darslarida masala yechish jarayonida o‘quvchilar masala tahlilini mustaqil ravishda amalga oshirib, yechimini to‘g‘ri topa olishiga erishishni ta’minlash.
- Arifmetik amallarni o‘rgatishda amaliy yondashuvni ta’minlash.
- O‘quvchi bilimini baholashda test sinovlaridan, reyting va diagnostik tahlil usullaridan



foydalananish.

➤ Har bir dars jarayonida o‘quvchilardagi yozma va og‘zaki hisoblash uyg‘unligini ta’minlab borish.

O‘quvchi masalani yechish uslublarini to‘g‘ri topa olishi va masalani yechish jarayonini tashkil qila olishi uchun mustaqil fikrlashni yetarli darajada rivojlantirishga qaratilgan doimiy ishlarni o‘quvchilar bilan olib borish, avval egallagan bilimlar va ko‘nikmalarini yangi vaziyatda ishlata olishga, tanish ma’lumotdagi yangi muammoni ko‘ra olish, ob‘ektning yangi vazifalarini ko‘ra bilish, ob‘ektning tuzilishini anglash, yechimning yoki yechish uslubining alternativini topa bilish, avvaldan ma’lum bo‘lgan muammolarning yechish uslublarini yangilar bilan bog‘lashni bilmox muhimdir.

O‘quv jarayonini boshqarishning umumiyligi nazariyasida ko‘rsatib, psixolog va pedagoglar ushbu nazariyaning umumiyligi g‘oyalari, asosiy prinsiplari, kerak bo‘lgan tushunchalari bilan qurollanishadi.

Axborotsiz boshqarish va ushbu tizimning ishlatilishi aqlga sig‘maydi. Insonlarning xulqiga bog‘liq bo‘lgan murakkab tizimni boshqarishda faqatgina axborotning ma’nosi va muhimligini bilib qolmay, balki insondagi shunday ruhiy va xulqiy aspektlari, ya’ni maqsadli tahminlash. Maqsadga qaratilish, talab va qiziqishlar, asoslash manbai kabilarni bilish lozim.

Shunday qilib, tasvirli tushuntirish uslubi uchun tayyor bilimlar va faoliyat uslublarini eslash (yodda saqlash) kiradi. Muammoli ifodalash uslubi esa mustaqil fikrlash elementlarining birga ko‘shilib kelishi va aniq bilimlarni yodda saqlashni o‘z ichiga oladi. Qisman izlanish uslubida ijodiy fikrlash va yodda saqlash elementlari qo‘shilib keladi. Izlanish uslubi esa ijodiy faoliyatni taxmin etadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga o‘z fikrlarini mustaqil bayon qila olishga, egallagan bilimlarini ijtimoiy faoliyatlarida qo‘llashga hamda matematik tayyorgarlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. “Matematika va uni zamonaviy pedagogik Texnologiyalar yordamida o‘qitish muammolari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2015-yil 25-aprel, Navoiy davlat pedagogika instituti).

2. P. Ishmuhammedova, A. Abduqodirov, A. Pardayev “Ta’limda innovatsion texnologiyalar”. T.:”Iste’dod”, 2008.

3. J.Yo‘ldoshev “Pedagogik texnologiya asoslari” T.; 2001.

4. Матупаева Ш.З. ”Математикага ихтисослашган синф ўкувчиларида ижодий қобилиятни шакллантириш масалалари” “Matematika va uni zamonaviy pedagogik Texnologiyalar yordamida o‘qitish muammolari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2015-yil 25-aprel, Navoiy davlat pedagogika instituti).

5. To‘lakova X., Baxritdinova D. “Matematika darslarida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash” “Matematika va uni zamonaviy pedagogik Texnologiyalar yordamida o‘qitish muammolari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2015-yil 25-aprel, Navoiy davlat pedagogika instituti).



**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA FIZIKA FANINI AKT DAN FOYDALANGAN
HOLDA NAMOYISHLI TAJRIBALAR ASOSIDA O'QITISHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

Igamberdiyeva Balnur Shirinovna

Navoiy viloyati Konimex tumani

Xalq ta'lifi bo'limiga qarashli

3- sonli umumta'lif maktabi

fizika va astronomiya fani o'qituvchisi

Telefon: 998994-228-12-89

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lif maktablarida Fizika fanini AKT dan foydalangan holda namoyishli tajribalar asosida o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Fizika, AKT, namoyishli, Paskal qonuni, atmosfera bosimi, Arximed kuchi, jismlarning suzishi.

Umumiyoq o'rta ta'lif maktab o'quvchilarining fizika faniga qiziqishlarini orttirish pedagogik jarayonda amalga oshiriladi. Umumiyoq o'rta ta'lif maktab o'quvchilarida fanga qiziqishni orttirish ikki tomonlama jarayon bo'lib, u o'zida o'qituvchining faoliyati (o'qitish)ni va o'quvchilar faoliyatları (o'rganish)ni mujassamlashtiradi. Ayniqsa, umumiyoq o'rta ta'lif maktab o'quvchilarida fizikaga qiziqishni namoyishli tajribalar bajarish jarayonida orttirishning natijasi bo'lib, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, abstrakt tafakkurni rivojlantirish, mantiqiy mushohadani o'stirish, eng muhimmi egallagan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay bilish hisoblanadi.

Umumiyoq o'rta ta'lif maktab o'quvchilarida fizika faniga qiziqishni orttirishning yuqori saviyasi aqliy usullarni umumlashtirish bilan tavsiflanadi. Bunda bir namoyishli tajribalarni bajarishdan boshqa namoyishli tajribalarni bajarish uchun sharoit yaratiladi. Masalan, “Paskal qonuni”, “Atmosfera bosimi”, “Arximed kuchi”, “Jismlarning suzishi”ni o'rganishga tatbiq qilish.

Umumiyoq o'rta ta'lif maktablarida fizika o'qitishni shunday olib borish kerakki, bunda u o'quvchilarining qiziqishlariga maksimal yordam bersin. Kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etishning muhim omillaridan biri - elektron darslik va qo'llanmalar yaratish, animatsion kichkina fizik jarayonlarni yaratish. Elektron darslik va qo'llanmalar fizikadan namoyishli tajribalarni bajarishda ularning mazmunini yangi materiallar bilan to'ldirib borishga imkoniyat yaratadi. Animatsiyalar esa kichkina laboratoriya ishlarini virtual yaratishni va bajarishga asos bo'ladi.

Axborot texnologiyalarini asosida yaratilayotgan multimediali vositalardan foydalanib, fizikadan namoyishli tajribalarni an'anaviy metod bilan bajarishda: o'qituvchining fizikadan namoyishli tajribalarni bajarish va uning mohiyatini tushuntirish jarayonining yengillashtirilishi, kompyuter texnologiyalarini asosida fizikadan bajarilayotgan namoyishli tajribalarni o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishilishi, kompyuterda fizikadan namoyishli tajribalarni ommaviy, guruh, individual holda bajarish imkoniyati, axborot texnologiyalaridan foydalanib, fizikadan namoyishli tajribalar bajarishda o'quvchilarining bilimining sifat jihatdan o'zgarib borishligi.

Xulosa o'rnida umumta'lif maktablarida mtakomillashtirilgan metodikadan ta'lif muassasalarida fizika o'qitish jarayonida samarali foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Bu esa har tamonlama raqobatbardosh va yuksak darajada kompetenlikka ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzaaxmedov B, Djo'rayev M. Fizika o'qitish metodikasi I-II qism Toshkent-2010.
2. Mirzaaxmedov B, Rizyev T. Fizika o'qitishda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi Toshkent-2008
3. Djo'rayev M. Fizika o'qitish metodikasi o'quv qo'llanma Toshkent-2015.
4. J.Yo'ldoshev "Pedagogik texnologiya asoslari" T.; 2001.



FIZIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Rustamova Saodatoy Meliziyayevna

Farg`ona viloyati Dang`ara tumani
29-maktab fizika fani o`qituvchisi

ANNOTASIYA: Zamonaviy ta`limda ta`lim muassasalardagi o`qitish sifatini ta`minlashga qaratilgan tizimli islohotlar zamirida bo`lajak o`qituvchilarning kasbiy mahorati, ularning zamonaviy ta`lim va innovatsion texnologiyalar, ilg`or xorijiy tajribalarni o`zlashtirish borasidagi zamonaviy bilim, ko`nikma va malakalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan sanaladi. Shu haqida fikrlar yuritamiz

KALIT SO`ZLAR: zamonaviy ta`lim, texnologiya, pedagogik texnologiya, o`qitish

Mamlakatimizda pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini modernizatsiyalash, sohadagi zamonaviy rivojlanish tendentsiyalari, ilg`or xorijiy tajribalar va innovatsion yondashuvlar asosida ta`lim mazmuni va o`qitish sifatini takomillashtirish muhimligi sababli u davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan. Respublikamizda umumiy o`rta ta`lim maktablarining uzluksiz rivojlanishi uchun iqtisodiy, siyosiy, huquqiy shart-sharoit yaratildi. Jumladan, hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qator me`yoriy hujjalarda o`qitishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko`tarish sohasida qator tadbirlar boshlab qo`yilgan. Xususan, fizika fanini o`qitishga alohida e`tibor qaratilib, bo`lajak fizika fani o`qituvchilarini zamon talablari asosida malakali kadr etib tayyorlash bugungi kunning kechiktirib bo`lmas muammolaridan biri sanaladi. Shuni hisobga oлган holda O`zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoyev quyidagilarni ta`kidlaydi: “Maktab o`quv dasturlarini ilg`or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o`quv yuklamalari va fanlarni qayta ko`rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarur. Mamlakatimiz uchun ilm-fan sohasidagi ustuvor yo`nalishlarni aniq belgilab olishimiz kerak. Hech bir davlat ilm-fanning barcha sohalarini bir yo`la taraqqiy ettira olmaydi. Shuning uchun biz ham har yili ilm-fanning bir nechta ustuvor yo`nalishini rivojlantirish tarafdirimiz. Joriy yilda matematika, fizika, kimyo-biologiya, geologiya kabi yo`nalishlarda fundamental va amaliy tadqiqotlar faollashtirilib, olimlarga barcha shart-sharoitlar yaratib beriladi. Shuningdek, ilm-fan sohasida fundamental va innovatsion tadqiqotlar uchun maqsadli grant mablag`larini ajratish mexanizmini tubdan qayta ko`rib chiqish kerak.”

Ma`lumki, fizika fani mavjud moddiy dunyodagi narsalarning fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni o`rganish jarayonida “ilmiy izlanish” metodlaridan foydalananadi. Shuning uchun ham ushbu metodik tavsiyada ilmiy izlanish metodlaridan kuzatish va tajriba, taqqoslash, analiz hamda sintez, umumlashtirish, fizika darslarida qo`llanishi ilmiy-metodik jihatidan tushuntirishga harakat qilingan. Fizikani o`qitish jarayonida fikrlash formalarini paydo qilish metodikasi ham yoritilgan, ya`ni hissiy bilish (sezgi, idrok, tasavvur) bilan mantiqiy bilish (tushuncha, hukm, xulosa) orasidagi mantiqiy bog`lanishlar ochib berilgan. Fizik tushuncha va uni o`quvchilar ongida shakllantirish metodikasini o`quvchilarga o`rgatish metodikalari yoritilgan. Fizik xulosa va uning induktiv, deduktiv hamda analogik turlarini dars jarayonidagi tatbiqlari ko`rsatilgan. Fizika fanini o`qitishdagi didaktik prinsiplarning turlarini o`rgatishga alohida ahamiyat berilgan. Fizika darsi, uning tuzilishi va uni tashkil qilish metodikasi, fizika darsining turlari, darsga tayyorgarlik va uning tahlili fizika darsiga qo`yilgan talablar ochib berilgan.

Pedagogik texnologiyalar: 1. Texnologiya – biror ishda, mahoratda, san`atda qo`llaniladigan usullar, yo`llar yig`indisi. (*Izohli lug`at*).

2. Pedagogik texnologiya – o`qituvchi mahoratiga bog`liq bo`limgan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o`quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir. (*V.P. Bespalko.*)

3. Pedagogik texnologiya – ta`limning rejalshtiriladigan natijalariga erishish jarayoni tafsiloti. (*I.P. Volkov.*)

4. Pedagogik texnologiya – texnika resurslari, odamlar va ularning o`zaro ta`sirini hisobga oлган holda ta`lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo`yuvchi o`qitish va bilimlarni o`zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish, qo`llash va aniqlashning tizimli metodi (*YUNEKSKO*).
5. Pedagogik texnologiya – bu o`qitishga o`ziga xos yangicha (innoatsion) yondoshuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalananishi, texnokratik ilmiy ongning



pedagogika sohasiga ko‘chirilgan tasviri, ta’lim jarayonining muayyan standartla Shuvi hisoblanadi. (B.L. Farberman.).

6. Ta’lim oluvchilar va ta’lim beruvchilarning o‘quv-tarbiya jarayonida avvaldan belgilangan sifatlarning shakllanishiga olib keladigan izchil amaliy faoliyatlarini pedagogik texnologiya deb hisoblash mumkin. (J.G’. Yo ‘ldoshev, S. Usmonov).

Keltirilgan ta’riflarni tahlili asosida xulosa qilib aytish mumkinki: zamonaviy pedagogik texnologiyaning mohiyati ta’limni yuqori darajada samarali tashkil etish uchun maqsad va vazifalarni aniq belgilash, ta’lim natijasini oldindan qayd etish, o‘quv predmetlarini to‘liq o‘zlashtirishga erishish uchun zaruriy ta’lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlash, oldindan qayd etilgan, aniq kafolatlangan natijaga erishishga qaratilgan zaruriy tadbirlar tizimini ishlab chiqish va ta’lim jarayonini unga rioya qilib tashkil etishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Q.P. Abduraxmanov, V.S. Xamidov, N.A. Axmedova, «FIZIKA», DARSLIK TOSHKENT 2017 y.
2. Abduraxmanov K.P., Egamov U. Fizika kursi , 2011 y.
3. WWW. Internet resurslari



**МАКТАБЛАРДА О'RGATILADIGAN KASB HUNARLARNI MATEMATIKA FANI
BILAN UYG'UNLASHTIRIB, DARSLARGA TADBIQ QILISHNI O'RGATISH
TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI**

Narbayeva Shodiya Allanazarovna

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tuman

1-son ixtisoslashgan mакtab o'qituvchisi

Telefon: +998 (99) 755-36-81

shodiyaranbayeva7@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktablarda o'rgatiladigan kasb hunarlarni matematika fani bilan uyg'unlashtirib, darslarga tadbiq qilishni o'rgatish texnologiyalarining ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Masala, mashq, geometrik shakllar, to'rtburchak, kesma, aylana, yarim aylana, doira, uchburchak, o'lchamlar, naqshlar.

Hurmatli prezidentimizni 2023 yil 20 yanvar kuni matematika fanini turmushdagi oson jarayonlarni o'r ganuvchi fan sifatida takidlab o'tdilar va maktablarda 64 ta kasb-xunar o'rgatish bo'yicha qaror qabul qildilar. Shunga ko'ra matematika darslarida 64 xil kasb-hunarni mavzularga bog'lab o'rgatish mumkin.

Matematika darsidagi geometrik shakllarni tikuvchilik, duradgorchilik, sartaroshlik, pishiriqlar, salatlar tayyorlash, non yopishni va boshqa kasb-hunarlarda qo'llash mumkin. Barcha kasblarni matematika darslarida amaliy masalalar yechish, geometrik shakllar mavzusini amaliyotda qo'llash mumkin bo'ladi xamda shu asosida misollar va algebraik aralashmalarga oid mavzularni darslarda o'tish mumkin. Masalan murabbo qaynatish, bodring, pomidor, karam tuzlamalar, salatlar, pishiriqlar tayyorlashda qo'llashimiz mumkin, ya'ni bolaga shu mavzuni hayotda qo'llash va tadbiq qilishni o'rgatish orqali kasb-hunarga qiziqish ortadi. Ertaga qo'shimcha daromadlar topish g'oyasi shakllanadi. Oilada qiz va o'g'il farzandalarimiz mustaqil hayotga qadam qo'yishganida asosiy ishidan tashqari kasb-hunar orqali xam kun kechirish mumkin.

Aralashmaga oid masalalar

Masalan bodring, pomidor, karam tuzlamalarini, salat va pishiriqlarni tayyorlashni targ'ib qilish mumkin, bunda o'z fantaziysi va to'g'ri hisob-kitob orqali kerakli mahsulotlar tayyorlashi, shakl va bezaklar tanlashi mumkin bo'ladi.



Misol uchun bodring tuzlamasi 3 kilogramlik idishga 2 kilogramm bodring, 2 osh qoshiq tuz, 1 osh qoshiq uksus, murch, sarimsoq, ziravorlar ishlataladi, ya'ni o'qituvchi darsda o'quvchilarga bu jarayonlarni video roliklar va slaydlar namunali ko'rgazmalar orqali mavzular tayyorlaydi hamda o'quvchilar masala qo'yadi.

Masala: 50 kg bochkaga tuzlab sotib tadbirkorlik va qo'shimcha daromad qilmoqchi bo'lsa, qancha miqdorda mahsulotlarni qo'shishi kerak degan masalani qo'yadi. Ya'ni proporsiyalar mavzusi bilan bog'lanib o'quvchilar hisobni amalga oshirishni ko'rsatish mumkin.

2kg-40gr tuz/ 50 kg-x, shu tartibda qo'shiladi, ziravorlar miqdori ham proporsiyalar mavzusi orqali hisob kitob qilinadi. O'quvchilar hisoblashni bajaradilar va shu jarayon orqali shu kasbga qiziqish ortishi, to'g'ri miqdor tanlashi va qo'shimcha daromad qilishga ko'mak bo'ladi.

Geometriya darsidagi geometrik shakllar to'rtburchak, kesma, aylana, yarim aylana, doira, uchburchak shakllarini restoranlar, to'y-ba'zimlarda dasturxonlarga tortiladigan meva va sabzovot, go'shtli mahsulotlardan tayyolanadigan assortilar shu shakllar yordamida yasashni, misol qilib amaliy tarzda ko'rsatish mumkin.



Masalan: Olma, banan, nok va boshqa mevalar doira, yarim doira shaklida kesib tayyorlashni ko‘rsatish mumkin.

Salat tayyorlash:

Masalan: tuxum, kolbasa, pishloq, bodring, pomidor, lavlagi, kartoshka, go‘sht.



Bu mahsulotlarni tayyorlashda doira, to‘rtburchak, uchburchak va boshqa shakllarda kesishni, qanday miqdorda qo‘shishni o‘rganib oladilar, o‘quvchilarda shu kasbga qiziqishni va matematik shaklni amaliyotda qo‘llash haqida tushunchalar paydo bo‘ladi.

Bundan tashqari o‘quvchilar darslarda o‘zlarini ham ushbu amallarni ya’ni kesish, naqsh berish, hisob kitob qilish, miqdorini aniqlashni bajaradilar va ko‘nikmalar hosil qiladilar, bu jarayon esa hayotda qo‘llash uchun yo‘l ochib beradi.

O‘quvchilarni kasb-hunarga o‘rgatishda boshqa fanlar bilan uyg‘unlashtirib mavzularni o‘tish mumkin. Tikuvchilik, kashtachalik, o‘ymakorlik va boshqa soxalarda chiziqlar, shakllar, o‘lchamlar, naqshlardan foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda bu texnologik tavsiyalarni o‘quvchilar hayotga tadbiq qilib, o‘z maxoratlarini, salohiyatini, dunyo qarashini, bilim darajasini amaliy oshirishi, amaliyot bilan nazariyani birga olib borishi va hayotda o‘z o‘rnini topib olishida muhim ahamiyatga ega.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006.
2. Umirbekov A.U., SHoabdakov SH.SH. Matematikani takrorlash —Toshkent: «O‘qituvchi», 1989.



YARIM O'TKAZGICHALAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Rahimova Gulmira Adhamjonovna

Namangan viloyati Kosonsoy tumani
8-sonli maktabning fizika fani o'qituvchisi
Tel: +998997212828

Annotatsiya: Bugungi kunning elektronika va elektrotexnikasini yarimo'tkazgichli asbob va materialgarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, ular bugun texnikaning hamma sohalariga kirib bormoqda. Ushbu maqolada yarim o'tkazgich moddalar va ularning xususiyatlari haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar: yarim o'tkazgichlar, elektr toki, modda, ta'sir, kremniy, metal, aralashma, o'tkazuvchanlik, elektron, teshik, temperatura.

Moddalar elektr o'tkazuvchanligi jihatidan 3 turga bo'linadi. Ular elektr tokini yaxshi o'tiruvchi - o'tkazgichlar (ko'pincha metallar), elektr tokini o'tirmaydigan moddalar - dielektirkilar (yani izolyatorlar) va yarim o'tkazgich moddalar (yarimo'tkazgichlar). Yarimo'tkazgich moddalar o'tkazuvchanligi jihatidan metall va dielektriklar orasidagi moddalar bo'lib, o'z fizik xususiyatlarini turli tashqi ta'sirlar (masalan yoritish, isitish va hokazo) natijasida keng intervalda o'zgartira olish xususiyatiga ega. Yarimo'tkazgichlar elektronika va mikroelektronikada juda keng qo'llanilib, zamonaviy elektr jihozlarning deyarli hammasi - kompyuterlardan tortib to uyali aloqa telefonlarigacha barchasi yarimo'tkazgichli texnologiyaga asoslangan. Eng keng qo'llaniladigan yarimo'tkazgich modda kremniy bo'lib, boshqa moddalar ham keng qo'llaniladi.

Yarimo'tkazgichlar - elektr tokini yaxshi o'tkazuvchi moddalar (o'tkazgichlar, asosan, metallar) va elektr tokini amalda o'tkazmaydigan moddalar (dielektriklar) orasidagi oraliq vaziyatni egallaydigan moddalar bo'lib, Mendeleyev davriy sistemasida II, III, IV, V va VI guruhlarda joylashgan ko'pchilik elementlari, ularning bir qator birikmalari yarimo'tkazgichlar jumlasiga kiradi.

Yarim o'tkazgichlarda ham metallardagi kabi elektr o'tkazuvchanlik elektronlarning harakati tufayli yuzaga keladi. Biroq elektronlarning harakatlanish sharoitlari metallar va yarim o'tkazgichlarda turlicha bo'ladi. Yarim o'tkazgichlar quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- yarim o'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanligi temperatura ko'tarilishi bilan ortib boradi (mas, temperatura 1 K ga ortganda yarim o'tkazgichlarning solishtirma o'tkazuvchanligi 16—17 marta ortadi);

- yarim o'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanligida erkin elektronlardan tashqari atom bilan bog'langan elektronlar ham ishtirop etadi (ba'zi hollarda bog'langan elektronlar asosiy rol o'ynaydi);

- sof yarim o'tkazgichlarga oz miqdorda qo'shilma kiritib, uning o'tkazuvchanligini keskin o'zgartirish mumkin (mas, 0,01% qo'shilma kiritilganda yarim o'tkazgichning o'tkazuvchanligi 10000 marta ortib ketadi).

Past temperaturalarda yarim o'tkazgichlarning solishtirma qarshiligi juda katta bo'ladi va amalda ular izolyator hisoblanadi, lekin temperatura ortishi bilan ularda zaryad tashuvchilarning konsentratsiyasi keskin ortadi. Masalan, sof kremniyda 20°C temperaturada erkin elektronlar konsentratsiyasi $\sim 10^{17} \text{ m}^3$ bo'lsa, 700°C da 10^{24} m^3 gacha, ya'ni million martadan ko'proq ortadi. Yarim o'tkazgichlarda erkin elektronlar konsentratsiyasining temperaturaga bunday keskin bog'liqligi o'tkazuvchanlik elektronlari issiqlik harakati ta'sirida hosil bo'lishini ko'rsatadi. Yarimo'tkazgich kristallda atomlar valent elektronlari yordamida o'zaro bog'langan. Atomlarning issiqlik tebranishlari vaqtida issiqlik energiyasi valent elektronlar orasida notejis taqsimlanadi. Ayrim elektronlar o'z atomi bilan bog'lanishni uzib, kristallda erkin ko'chib yurish imkonini beradigan yetarli miqdordagi issiqlik energiyasiga ega bo'lib qolishi va erkin elektronlarga aylanishi mumkin. Tashqi elektr maydon bo'limganda bu erkin elektronlar tartibsiz harakat qiladi. Elektr maydon ta'sirida esa maydonga qarshi yo'nalishda tartiblangan harakatga kelib, yarim o'tkazgichda tok hosil qiladi.

Erkin elektronlar yuzaga keltirgan o'tkazuvchanlik elektron yoki n tip o'tkazuvchanlik deb ataladi. Bog'langan elektronning o'z atomini "tashlab ketishi" atomning elektr neytralligini buzadi, unda "ketib qolgan" elektron zaryadiga miqdoran teng musbat zaryad - teshik vujudga keladi. Tashqi elektr maydon bo'limganda elektronlar ham, teshiklar ham tartibsiz harakatlanadi,



tashqi maydon bo‘lganda esa elektronlar maydonga qarshi, teshiklar maydon bo‘ylab ko‘chadi. Teshiklarning ko‘chishi bilan bog’liq o‘tkazuvchanlik teshikli yoki p tip o‘tkazuvchanlik deyiladi.

Erkin elektronlar soni bilan teshiklar soni bir-biriga tengligi tushunarli. Aniqlanishicha, ularning harakatlanish tezligi ham bir xil ekan. Demak, yarim o‘tkazgichdagi tok ayni vaqtida ham elektron, ham teshikli o‘tkazuvchanlikdan vujudga keladi. Bunday elektron-teshikli o‘tkazuvchanlik yarim o‘tkazgichlarning xususiy o‘tkazuvchanligi deyiladi. Xususiy o‘tkazuvchanlik sof yarim o‘tkazgichda kuzatiladi. Biroq tabiatda sof yarim o‘tkazgichlar yo‘q. Ba’zi qo‘shilmalar yarim o‘tkazgichlarni erkin elektronlar bilan boyitsa, boshqa ba’zi qo‘shilmalar teshiklar bilan boyitadi. Yarim o‘tkazgichlarda yuzaga keladigan bunday o‘tkazuvchanlik qo‘shilmali o‘tkazuvchanlik deb ataladi.

Agar asosiy yarim o‘tkazgichlar atomi o‘rniga elementlar davriy sistemasida undan keyingi guruhda turgan element atomi kiritilsa, bu qo‘shilma atomning bitta valent elektroni atomlararo bog‘lanishda ishtirok etmaydi va erkin elektronlar safiga qo‘shiladi, binobarin, n ip o‘tkazuvchanlik ortadi. Va, aksincha, undan oldingi o‘rinda turgan element atomi kiritilsa, atomlararo to‘la bog‘lanishda 1 ta elektron yetishmaydi, teshik hosil bo‘ladi. Bunda p tip o‘tkazuvchanlik ortadi. Qo‘shimcha birinchi holda donor (elektron beruvchi) qo‘shilma, ikkinchi holda esa akseptor (elektron oluvchi) qo‘shilma deb ataladi.

Yarim o‘tkazgichlarning elektr o‘tkazuvchanligi xususiy va aralashmali o‘tkazuvchanliklar yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Yuqori temperaturalarda xususiy, past temperaturalarda esa qo‘shilma o‘tkazuvchanlik asosiy rol o‘ynaydi.

Yarim o‘tkazgichlarga shunday materiallar kiradiki, ularning xona haroratidagi solishtirma elektr qarshiligi 10^{-5} dan 10^{10} om sm gacha bo‘ladi. Yarim o‘tkazgichlar soni metall va dielektriklar sonidan ortiq, juda ko‘p hollarda kremluy, arsenid galliy, selen, germaniy, tellur va har xil oksidlar, sulfidlar va karbidlar kabi yarimo‘tkazgich materiallardan foydalaniлади.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O.Axmадjonov. “Fizika kursi” Toshkent. “O’qituvchi”.
2. I.V.Savelev “Umumiy fizika kursi” Toshkent-1976 yil.
3. Bekjonov.R.B Axmadxo’jayev “Atom fizikasi” Toshkent 1979-yil.
4. A.S.No’mонxo’jaev Fizika. II qism. Akademik litsey va KHKlar uchun o’quv qo’llanma. va boshqalar. Toshkent.“Oqituvchi”. 2001 yil.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 17-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2023

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000